



JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY ASOSLARI

Nurishov D.E.
(PhD) dosent

Tayanch soʻzlar: jismoniy chiniqish, jismoniy mashq, aqliy tarbiya gimnastika, mushaklar, sayohat va sayrlar harakat, muvozanat, yurish, yugurish, jismoniy mashqlarni bajarish usullari, ekologik tarbiya, yuqori sinf o'quvchilari.

Ключевые слова: физическая подготовка, физическая подготовка, умственная подготовка, гимнастика, мышцы, путешествия и прогулки, движение, равновесие, ходьба, бег, способы выполнения физических упражнений, экологическое воспитание, старшеклассники.

Key words: physical training, physical training, mental training, gymnastics, muscles, travel and walks, movement, balance, walking, running, ways of doing physical exercises, environmental education, high school students.

“Ekologik tarbiya juda koʻp tomonlari bilan ijtimoiy va umuminsoniy tarbiya bilan chambarchas bogʻliqdir. Jumladan, maqsadi, uslublari, obyektlari bir xil, yaʼni atrof-muhit va inson. Ammo, ekologik tarbiyaning farqli tomoni uning miqdoriy yoki keng koʻlamligida”, deydi N.V.Lazarev. Shuningdek, ekologiya fanini birinchi boʻlib yuqori pogʻonaga koʻtarish, umumbashariy jarayonlar bilan shugʻullanadigan fanga aylantirish zarurligini qayd etadi [225; 97-b].

Shiddat bilan yangilanib borayotgan taʼlim texnologiyalari, innovatsion taʼlim tizimlarining oʻzgarib borishi natijasida mavjud muammolarni bir muncha samarali vositalar yordamida bartaraf etishga keng imkoniyatlar ochmoqda. Shuning uchun yuqori sinf oʻquvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishning mavjud tizimini takomillashtirish orqali koʻzlangan maqsadga erishish mumkin, degan xulosaga kelindi.

Tabiatda boʻlayotgan texnogen taʼsiri kamaytirish yoʻllarini qidirish, bunday jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini chuqurroq oʻrganish, falokatning oldini olish yoʻl-yoʻriqlarini qidirish, tabiiy omillar bilan tirik jonlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning mexanizmlarini, oʻzaro taʼsir etish qonuniyatlarini oʻrganish,

ayniqsa, inson, tabiat va jamiyat o'rtasidagi nomutanosiblik sabablarini aniqlash va bunga barham berish bugungi kunning eng muhim vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Inson faoliyati ekologik vaziyatning nihoyatda keskinlashib ketishiga sabab bo'lmoqda. Insoniyat paydo bo'lgan davrdan to hozirga qadar tabiatga, atrof-muhitga ta'sir etib, uni batamom o'zgartirib yubordi. Inson faoliyati natijasida yer shari yuzasi, iqlimi, o'simligi, hayvonot dunyosi, atmosfera havosi butunlay o'zgarib ketdi. Suvning ifloslanishi, o'rmonlarning qirqib yuborilishi, tuproq eroziyasi, yovvoyi hayvonlar va baliqlarning ko'plab ovlanishi natijasida ekologik inqiroz yuzaga kelmoqda.

Shuning uchun ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun juda zarurligi bois eng dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko'p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining holati va sifatini belgilash imkoniyatini beradi. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi o'ta xavfli muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liq ekanligini mualliflar ta'kidlab o'tgan [120; 160-b., 114; 43-b.].

Yer sayyorasida murakkablashib borayotgan ekologik vaziyat, butun insoniyat oldida tabiat, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy zaxiralardan tejab-tergab, ehtiyotkorlik bilan foydalanishni dolzarb muammoga aylantirmoqda.

Bugungi kundagi vaziyat bu muammolarni zudlik bilan hal etish, o'ta dahshatli oqibatlarining oldini olishni dunyodagi barcha mamlakatlar va xalqlar oldiga muhim maqsadli vazifalarni yuklamoqda. Ushbu muammolarni ilmiy asosda hal etish, insoniyatning baxt-saodati, ertangi kuni, kelgusi avlod taqdiri uchun g'amxo'rlik qilishdek muhim pedagogik, ilmiy, psixologik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, demografik muammolardan hisoblanadi [116; 149-b].

Yuqorida zikr qilingan ekologiya fanlari hajmi bilan, mintaqalar bilan yoki milliy chegaralar darajasida chegaralangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradigan bo'lsa, ekologiya umumbashariy doiralarni o'z ichiga oladi, hajm jihatdan, sayyoramizda bo'layotgan jarayonlarni o'rganadi. Bu muammo yechimini topish va uni bartaraf etish shartlaridan biri bu umumta'lim maktablari, yuqori sinf o'quvchilari ongiga ekologik vaziyatni batafsil tushuntirish, ularni ona vatanga, tabiatga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash lozim. Qolaversa jismoniy tarbiya darslariga ham ekologik toza hududlarda yoki yopiq sport inshootlarida tashkil etishda bugungi kundagi atfor-muhit sharoitini tushuntirib borish ularni kelajakda ona tabiatga bo'lgan muomilasini yanada oshirishga zamin yaratadi.



Shuning uchun yuqoridagi tahlillar asosida yuqori sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishning mavjud tizimini takomillashtirish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, degan xulosaga kelindi.

Yuqori sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish umumta'lim maktablarining ta'lim jarayonlarida va maktabdan tashqari ishlari orqali ham amalga oshirish mumkin. Bunda, asosan, bir necha tabiiy-ilmiy fanlar, jumladan, jismoniy tarbiya fani orqali amalga oshirish samarali natijani beradi. Chunki jismoniy tarbiya darslarini ekologik toza havoda tashkil etish ularni yanada chuqurroq bilimga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarimiz davomida jismoniy tarbiya ta'limi jarayoni va sinfdan tashqari ishlar orqali yuqori sinf o'quvchilarini sog'lomlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, jismoniy tayyorgarligini oshirish, ta'lim va tarbiyaviy ishlar, sport va sog'lomlashtirish ishlariga yuqori sinf o'quvchilarini jalb qilish va saralash ishlari, sport musobaqalariga tayyorlash bilan birgalikda, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, atrof-muhitga bo'lgan to'g'ri munosabatni o'rnatish, tejamkorlik, shaxsiy va jamoaviy gigiyenasi, ekologiyaga oid bilimlarini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlari yuqori ekanligi o'z isbotini topdi [113; 203-b., 127; 62-b., 130; 390-b].

Milliy qadriyatlarni tiklash va o'rganish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish pedagogika sohasida muntazam dolzarbligini yo'qotmagan jarayon sifatida tadqiq etilib kelinmoqda. Ta'lim innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etiladigan hozirgi davrda yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirish rivojlantirish va mazkur jarayonni takomillashtirib borish davr talabidir. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishdagi muhim omillardan biri sport va jismoniy madaniyatdir. Shaxs har doim atrof-muhit bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Bu jismoniy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi, u orqali umumiy ta'lim va madaniy vazifalarni hal etish imkonini beradi. Jismoniy tarbiya darslarida yuqori sinf o'quvchilari ekologik madaniyatini rivojlantirish ko'p jihatdan ularning yosh xususiyatlari va imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Jismoniy madaniyatdan foydalanish natijasida yuqori sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatda o'z-o'zini rivojlantirishga doir faoliyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi, sport va jismoniy madaniyatga ijobiy munosabati asosiy ahamiyat kasb etadi [168; 304-b., 171; 112-b].


Jismoniy tarbiyaning vazifalari insonni sog'lomlashtirishga qaratilgan bo'lib, mazkur vazifa insonlarda ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Xususan, har bir yosh davri uchun jismoniy rivojlanish jarayoni o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bunda bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlarning mazmuni, umumiy rivojlanishiga doir mashqlar, asosiy harakatlardagi mashqlar, ochiq o'yinlar va boshqa jarayonlar o'z mazmuniga ega. Bu borada

ta'lim muassasalarimizda barcha sharoitlar mavjud bo'lib, umuminsoniy hamjamiyat tomonidan hal qilinadigan ko'plab vazifalar orasida yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy madaniyat va ekologik madaniyat bilan birgalikda shakllantirish zarurligi va bu jarayonni amalga oshirish texnologiyasi o'rtasidagi ziddiyat yoshlar jismoniy tarbiyasining zamonaviy tizimiga xos muammoni belgilaydi. Ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, jismoniy madaniyatni rivojlantirishning eng muhim masalasidir [148; 144-b., 170; 18-b.].

Ekologik madaniyatni rivojlantirish – murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib bizning tadqiqotimizda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar “ekologik madaniyat”, ekologik madaniyatni rivojlantirib, ekologik ta'lim-tarbiya psixologik-pedagogik, jismoniy madaniyat jismoniy tarbiya darslarida ekologik madaniyatni rivojlantirishda, bolalarni tarbiyalashda maktab va oilaning pedagogik o'zaro hamkorligi dasturini amalga oshirish, qo'llab-quvvatlash holatining pedagogik asoslarini o'rganib chiqish zarur [111; 160-b.].

“Ijtimoiy fikr” tadqiqot markazining xulosalariga ko'ra, yoshlarda o'z mamlakati tarixi va ajdodlarining tarixiy merosiga qiziqishning oshishida ijobiy dinamika kuzatilmogda. Masalan, so'rov ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning ko'pchiligi (69,5%) o'z Vatani tarixiga qiziqishini aytishgan. So'rovda yoshlarning o'z mamlakatiga munosabati, ularning ekologik toza muhitni tashkil etilishi darajasi quyidagi savol yordamida aniqlandi: “Vatan – bu nima?” javoblarning ko'rsatishicha, yoshlar bu tushunchani 51,9% holda “Mustaqil O'zbekiston”, 26,5% holda “inson tug'ilgan joy”, 19,9% holda “o'zi ulg'aygan uy, mahalla, tuman” tushunchalari bilan bog'liqlikda tushunishadi (1.2-rasmga qarang):

Tadqiqot respondentlarning ko'pchiligi uchun ekologiya atrof-muhitga xos ekanligini ko'rsatdi. Ushbu javoblarni yoshlarning o'z xalqi tarixini yaxshi bilishi, ekologik toza muhitning rivojlanganligi, milliy an'analarni hurmat




1.2-rasm. “Vatan – bu nima?” savollarning natijalari




qilishi, insonning axloqini belgilovchi bosh sifatlar hisoblanishi haqidagi fikri bilan qiyoslay turib, shunday xulosa qilish mumkinki, yoshlar uchun ekologiya va tabiiy boyliklar qadriyatli munosabatni belgilovchi bosh hayotiy yo‘nalishlar hisoblanar ekan.

“Ekologik madaniyat nima?” degan savolga yoshlarning javoblari bilan tasdiqlanadi. Mutlaq ko‘pchilik yuqori sinf o‘quvchilari quyidagi javoblarni berishgan: “Tabiatga muhabbat” – 70,6% (2019-yilda – 63,5%), “Tabiatni avaylab-asrash” – 62,7% (2019-yilda – 59,2%), “Tabiatni muhofaza qilishga tayyorlik” – 47,5% (2019-yilda – 44,2%), “Mamlakat yoshlari uchun o‘z xalqining olamshumul shuhratini ko‘paytirish” – 30,2% (2017-yilda – 23,9%, 2019-yilda – 25,5%, 2020-yilda – 25%), “Milliy an‘analar va urf-odatlariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish” – 22,1% (2018-yilda – 22,8%, 2019-yilda – 23,5%, 2018-yilda – 19,3%), “Vatan tarixi va madaniyatini bilish” – 17,8% (2018-yilda – 19,5%, 2019-yilda – 19,6%, 2020-yilda – 13,3%) kabi javoblar qadriyatlar bilan bog‘liqlikni ko‘rsatadi (1.3-rasmga qarang):




1.3-rasm. “Ekologik madaniyat nima?” degan savolga yoshlarning javoblari

Yuqori sinf o‘quvchilari ekologik madaniyat darajasini baholay turib, yil o‘tgan sari quyidagi nuqtayi nazarlarni tanlamoqdalar: “Men ekologik madaniyat tushunchasini anglaganman” – 54,0%, “Men tabiiy boyliklarni avaylab asrayman” – 29,9%, “Men endi ekologik madaniyat tushunchalarini anglab yetyapman” – 13,1% (2018-yilda – 15,7%). So‘rovning ko‘rsatishicha, yuqori sinf maktab o‘quvchilarida tabiatni sevmayman, deb hisoblaydigan o‘smirlar amalda mavjud emas. O‘z hududining jonli tabiatiga sadoqatli bo‘lish ekologik madaniyatni belgilovchi muhim axloqiy sifatlardan biri hisoblanadi (1.4-rasmga qarang):



1.4-rasm. Ekologik madaniyat darajasi natijalari


Yuqori sinf maktab o'quvchilari bu ekologik madaniyat tushunchasiga quyidagi munosabatda bo'ladi: tabiatga muhabbat – 46,8%, toza atrof-muhitni yaratish uchun kurashish – 38,0%, o'zining jonli tabiati tarixi, madaniyati va an'analarini bilish va hurmat qilish – 14,6% (1.5-rasmga qarang):



1.4-rasm. Ekologik madaniyat darajasi natijalari

Yuqori sinf o'quvchilarining milliy o'zligini anglashida, ekologik madaniyatning shakllanishida xalq urf-odatlarini va an'analarini mazmunini uyg'unlashtirish (66,8%), O'zbekistonning atrof-muhiti (59,7%), tabiatimizning ma'naviy o'ziga xosligi (58,8%), tabiatimizning boy va mazmunli tarixi (47,2%), milliy ekologik tafakkur (37,7%), ajdodlarning ekologik madaniyatni rivojlantirishga oid buyuk merosi (37,1%), ekologik madaniyatni rivojlantirishga oid milliy madaniyat (35,7%), jismoniy madaniyat ekologik madaniyatning tarkibiy qismi ekanligi (10,5%) tushunchalari bilan bog'liqlikda anglashiladi (1.6-rasmga qarang):

O'qituvchilar va yuqori sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini amaldagi holatini o'rganish natijasida quyidagilar aniqlandi:



1.5-rasm. Ekologik madaniyat tushunchasi natijalari

1. 5-11-sinflar o'quvchilarining ekologik ta'limga oid bilim va tushunchalari yetarli emas.

2. O'qituvchilar, jahonda va respublika hududida mavjud bo'lgan xavfli ekologik, gigiyenik muammolardan xabardor emaslar (suv tanqisligi, havo va suvning ifloslanishi, Orolbo'yi muammosi, energiya taqchilligi, parnik effekti, yer qatlaminin yemirilishi).

3. 5-11-sinflar o'qituvchilarining ekologik madaniyatni oshirishga yordam beradigan maxsus qo'llanmalar, darsliklar, ko'rgazmali qurollar, kino lavhalari mavjud emas.

4. Dasturlarda ekologiyaga oid materiallar mazmuni o'z aksini topmagan.

5. 5-11-sinflar darsliklarida ekologiyaga oid tushunchalar talab darajasida o'z aksini topmagan.

6. Amaldagi ta'lim-tarbiyada yuqori sinf o'quvchilarining tabiatga munosabati masalalari borasida uzilishlar mavjud, ekologik ong, ekologik bilimlarni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmagan.

7. Ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalari o'rganilib, umumlashtirilib, amaliyotga tatbiq etilmagan.

8. Ekologik tarbiyaning umuminsoniy xarakterga ega bo'lgan asosiy muammolari o'rganilib, amaliyotga joriy etilmagan.

9. Jismoniy tarbiya ta'limi orqali yuqori sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti muammolari ilmiy-amaliy jihatdan hal etilmagan.

10. Yuqori sinf o'quvchilarining milliy, ma'naviy qadriyatlar hamda atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga faol aralashuviga oid ommaviy-tashkiliy ishlar amalga oshirilmaydi ("Navro'z" bayrami sport o'yinlari", "Butunjahon ekologiya kuni", "Butun dunyo o'simliklarini himoya qilish kuni", "Sayohatlar (turizm)", "Ot sporti" va boshqa muhim sanalarga bag'ishlab



o'tkaziladigan sport tadbirlari. Vaholanki, bular yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy qadriyatlar hamda atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga aralashuvining eng yaxshi shakllaridir.

“Jismoniy tarbiya” fanini o'qitish konsepsiyasi maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional hamda oliy ta'lim tizimlarida Jismoniy tarbiya ta'limni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini qo'yidagicha belgilab beradi.

Адабиётлар:

1. Нурышов Д.Е Ёш курашчиларда базавий элементларни шакллантиришнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш. Автореф.2018. й.—21-б
2. Курзанов А.Н., Заболоцкий Н.В., Ковалев Д.В. Функциональный резерв организма. 75-е годы
3. Лазарев Н.В. – М., Медицина, 1987. – 97 [2] с.: ил. -(Выдающиеся деятели отечественной медицины и здравоохранения).
4. Матвиева Н.А., Леонов А.В. Гигиена и экология человека. Учебник. – РФ.: Финкс, 2017.
5. Назарова Н.М. Сравнительная специальная педагогика: Учебное пособие. – М., Академия, 2018. – 204 с.
6. Неверковича С.Д. Педагогика физической культуры. Учебник для студентов ВУЗов. Под ред. – М., Академия, 2017. – 46 с.
7. Николай Пак. От проективно-рекурсивной технологии обучения к ментальной дидактике – М., Letagant SFU, 2017. – 81 с.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslarida yuqori sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy asoslari ilmiy tomondan tahlil etilgan. Erishilgan ilmiy yutuqlar jadvallarda ko'rsatilib o'tilgan. Shuningdek, o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning shakl va usullari ifodalangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье научно анализируются социальные основы развития экологической культуры у старшеклассников на уроках физической культуры. Достигнутые научные достижения представлены в таблицах. Также представлены формы и методы формирования экологической культуры у учащихся.

SUMMARY

This article scientifically analyzes the social foundations of developing environmental culture in high school students during physical education lessons. The scientific achievements achieved are presented in tables. The forms and methods of developing environmental culture in students are also presented.